QASHQADARYO VILOYATI G‘UZOR TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

O‘zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G‘uzor shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 14-uy.Tel:75.552-13-60

2022 - yil 9 - sentabr 364-4-56-Q/22 G‘uzor tuman hokimligi

G‘uzor tumani hududidagi umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

G‘uzor tumani hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta’minlash maqsadida, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari” talablariga asosan hamda O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi qonunning 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. G‘uzor tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. G‘uzor tuman Ichki ishlar bo‘limi (Tursunov), tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (Safarov) va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (Rustamov)ga tuman hududidagi umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. G‘uzor hayoti gazetasi tahririyati (Xasanov) tuman hokimligi matbuot xizmati (Yuldoshev)ga ushbu qaror gazetasi sahifalarida hamda tuman hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi tavsiya etilsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Z.Zokirov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Suyunov**

G‘uzor tuman hokimining
2022 yil 9 sentabrdagi
364-4-56-Q/22-son qaroriga
1-ilova

G‘uzor tumani hududidagi umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzillari

RO‘YXATI

t/r	Yo‘l belgisi o‘rnatiladigan yo‘l nomi va manzili	Yo‘l belgisining nomi
1.	4n-292y “M-39 avtomobil yo‘lidan A-380 avtomobil yo‘liga o‘tish” avtomobil yo‘lining 5-6 km oralig‘i yo‘lning chap tomoni	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”
2.	4n-292y “M-39 avtomobil yo‘lidan A-380 avtomobil yo‘liga o‘tish” avtomobil yo‘lining 3-km oralig‘i yo‘lning chap tomoni	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”
3.	4n-292y “M-39 avtomobil yo‘lidan A-380 avtomobil yo‘liga o‘tish” avtomobil yo‘lining 2-km oralig‘i tuman tibbiyot birlashmasiga kirish yo‘lning o‘ng tomoni	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”
4.	4k-349 “G‘uzor aylanma yo‘li” avtomobil yo‘lining 4-5 km oralig‘i yo‘lning chap tomoni	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”